Modulli g'ishtlarning o'lchamlari esa $250 \times 120 \times 88 \text{ mm}$ va dumaloq yoki to'rtburchak kovakli bo'ladi. Mustahkamligiga qarab g'ishtlar quyidagi markalarga bo'linadi: 75; 100; 125; 150; 200; 250; 300. Eng ko'p tarqalgan devorbob materiallarning turlari 1-2-raslarda keltirilgan.



2-rasm. Devorbob materiallarning yangi turlari

Issiqlik izolyatsiyasi (g'ovakli-ichi bo'sh g'ishtlar va toshlar, perlitokeramik va boshqalar): tuproq betonlar uchun to'ldirgichlar (keramzit, agloporit): issiqqa bardoshli buyumlar (g'isht va fason buyumlar).

Keramik buyumlar sirlangan va sirlanmagan bo'lishi mumkin. Sir (bo'yoq) kuydirish yo'li bilan puxtalangan shishasimon qoplamdir. U buyumlarni tashki ta'sirlarga chidamli, suv o'tkazmaydigan va chiroyli manzarali qiladi.

Muhokama

G'isht materiallar ishlab chiqarish uchun xom ashyolar. Keramik materiallar va buyumlar ishlab chiqarish uchun tuproq asosiy xom ashyodir. Tuproqning texnologik xossalarini yaxshilash uchun, shuningdek, tayyor buyumlar maxsus fizik-mexanik xossalarga ega bo'lishi uchun

yog'sizlantiruvchi, kuyib ketadigan va plastik qiladigan qo'shimchalar ishlatiladi.

Tuproq-tog' jinslarining mayda dispersiyasi fraksiyasi bo'lib, suv bilan plastik qorishma hosil qilish, qurigandan keyin unga berilgan shaklni saqlab qolish va pishirilgandan keyin tosh qattiqligiga ega bo'lish xususiyatiga ega.

Tuproq tarkibida dala shpati (granit, sienit, gneys va xokozo) bo'lgan bazi magmatik va metamorfik tog' jinslarining mexanik yemirilishi va ximoyaviy parchalanish mahsuloti hisoblanadi. Dala shpatining parchalanishi natijasida kaolinit minerali $A1_2O_3 \times 2SiO_2 \times 2H_2O$ hosil bo'lgan. Lekin tog' jinslarining tarkibida dala shpatidan tashqari boshqa minerallar (kvars, slyuda va xokozo) ham bo'ladi, shu sababli ular yemirilganda tuproq, kvars, slyuda va parchalanmagan boshqa minerallarning zarrachalaridan iborat murakkab aralashma hosil bo'ladi.

Tuproq tarkibida dala shpati, ohak toshlarning parchalanmagan donalari shuningdek, temirli, organik va boshqa moddalar bo'lishi mumkin. Ohak toshning tuproq tarkibidagi yirik donalari zararli aralashmalar hisoblanadi, chunki pishirish jarayonida ular ohakka aylanadi, so'ngra ohak havoda so'nadi va hajmi kengayib keramik buyumlarini yemiradi.

Natijalar

Tuproqlarning donador tarkibi turlicha bo'ladi tuproqlar tarkibida xar xil o'lchamli zarrachalar bo'lishi ularni xossalari sezilarli darajada ta'sir qiladi. Odatda tuproqlarni tarkibida ko'pchilik xollarda kaolinitdan iborat bo'ladi. 0,005 mm kichik o'lchamli zarrachalarning miqdori ko'p bo'ladi. Shunday zarrachalar tuproq deb ataladi. Ular tuproqlarni yuqori plastik xossali qiladi. O'lchami 0,005-0,15 mm bo'lgan ancha yirik zarrachalar changsimon deb yuritiladi, o'lchami 0,15-5 mm bo'lgan zarrachalar esa qumli zarrachalar deb ataladi. Changsimon va qumli fraksiya plastikli xossasiga ega bo'lmaydi. Lekin qumni ma'lum chegarada foydali aralashma deb hisoblash mumkin, chunki u tuproq massasida o'ziga xos skelet yaratadi va tuproqni quritish hamda pishirishda kirishishni kamaytiradi. Tarkibidagi tuproq zarrachalari miqdoriga qarab tuproqlar og'ir tuproqlarga (tuproq zarrachalari miqdori 60%dan ortiq), tuproqlarga (30-60%), qumrok tuproqlarga (10-30%) va qumlok tuproqlarga (5-10%) bo'linadi. Tuproqlarning keramika materiallar ishlab chiqarishda hisobga olinganidek eng muhim xossalari plastikligi, havoda va issiqda kichrayishi, issiqbardoshligi, tuproq sopolakning rangi va xokozolardir.

Plastiklik deb, tuproq qorishmasining tashqi kuchlar ta'siri ostida darzlar hosil qilmasdan kerakli shaklga kirishi va kuch olingandan keyin shu shaklni saqlab qolishga aytiladi. Tuproq tarkibida tuproq zarrachalarining miqdori ortgan sari uning plastikligi ortadi. Tuproq qancha plastik bo'lsa, yaxshi shakllanadigan tuproq qorishmasini hosil qilish uchun shunchalik ko'p suv talab qilinadi, bu esa o'z navbatida quritish va pishirish jarayonida buyumlarning ko'p kirishiga sabab bo'ladi. Tuproqlar yuqori plastik (yog'li)

tuproq, o'rtacha plastik tuproq va kam plastik tuproq (yog'siz)lar bo'ladi. Yog'li tuproqlarning plastikligi yaxshi bo'ladi, ular bog'lanuvchan bo'ladi va oson shakllanadi, lekin buyumlar qurish jarayonida hajmi kichrayadi va darzlar hosil bo'ladi. Shakllanadigan massaning plastikligini oshirish, g'isht va boshqa materiallarining sifatini yaxshilash uchun sirtiga aktiv moddalar-sulfat-achitqi bragasi (SDB) va boshqalar qo'llaniladi. Keramik materiallarni ishlab chiqarish uchun yuqori plastik tuproqlar ishlatilganda xom ashyo aralashmasiga yog'sizlantiruvchi qo'shimchalar yoki ma'lum miqdorda plastikligi kam tuproq qo'shiladi. Tuproq zarrachalarini ajratish uchun zarur bo'lgan kuch uning bog'lanuvchanligini ko'rsatadi. Yuqori bog'lanuvchanlikka tarkibida ko'p miqdorda tuproqli fraksiyalar bor tuproqlar ega bo'ladi. Tuproqning bog'lash xususiyati shu bilan ifodalanadiki, tuproq plastik bo'lmagan materiallarning zarrachalarini bog'lanish (qum, shamot va boshqalar) va quriganida yetarli darajada mustahkam xom ashyo hosil qilishi muimkin. Tuproqlarning havoda kichrayishi deb, 110 °C da quritish jarayonida endigna qoliplangan namunaning chiziqli o'lchamlarida protsent hisobida ifodalanadi. Yuqori plastik tuproqlarning havoda chiziqli kichrayishi 10% dan ortiq o'rtacha plastiklikdagi tuproqniki 6-10 va oz plastik tuproqniki 6 % dan kam bo'ladi. Tuproqlarning issiqda kichrayishi deb, pishirish jarayonida quruq namunaning chiziqli o'lchamlarining o'zgarishiga aytiladi. Tuproqlarning issiqda kichrayishi turiga qarab odatda 1-4% atrofida bo'ladi. To'la kichrayish – havoda va issiqda kichrayish kattaligining arifmetik yig'indisidir. To'la kichrayish kattaligi odatda 5-18, kichrayishning eng katta qiymatiga yuqori plastik tuproqlar ega bo'ladi. Tuproqning ancha kichrayishi salbiy xossa hisoblanadi, chunki hajmi bir tekis o'zgarmasa buyumning shakli o'zgaradi (qiyshayadi, dars ketadi) To'la kichrayishni buyumlarni qoliplashda hisobga olish lozim.

Xulosa

- Issiqbardoshlilik bo'yicha tuproqlar uch gruppaga bo'linadi: Yumshash temperaturasi 1580 °C dan yuqori issiqbardosh tuproqlar; yumshash temperaturasi 1580 °C-1350 °C bo'lgan qiyini suyuqlanadigan tuproqlar va yumshash temperaturasi 1350 °C dan past oson suyuqlanadigan tuproqlar.

- Issiqbardosh tuproqlar tuproqli zarrachalardan iborat bo'lib, ularning tarkibida ozgina miqdorda aralashmalar bo'ladi va shu sababli yuqori plastikka ega.

- Bu tuproqlar issiqbardosh chinni va fayans buyumlarni tayyorlash uchun ishlatiladi.

- Qiyin suyuqlanadigan tuproqlar pol plitkalari, kanalizatsiya trubalari va qurilishbop keramikaning boshqa turlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

- Tuproq sopolakning pishirilgandan keyingi rangi tuproq tarkibi va undagi aralashmalar miqdoriga bog'liq bo'ladi.

- Kaolinlar eng sof tuproqlarning xom ashyosi hisoblanib, oq rangli sopolak beradi.

- Temir oksidlari keramik buyumlarga och sariq rangdan to to'q qizil va qo'ng'ir rang beradi.

- Tuproqqa mineral bo'yoqlar qo'shib har xil rangli va nozik turlardagi keramik buyumlar olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoev Sh.M. Qurilish ashyolari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida, 2019-yil 20-fevral,

PQ – 2660.

2. Qosimov E. Qurilish ashyolari. Oliy o'quv yurtlarining magistrantlari uchun. - darslik. T.: Mehnat. 2004.

3. Samigov N.A., Samigova M.S.. Qurilish materiallari va buyumlari. Toshkent. Mehnat, 2004.

4. Рыбьев И.А. Строительное материаловедение.-М.: Высшая школа, 2003.-701 с.

5. Микульский В.Г. и др. Строительные материалы.-М.: АСВ, 2000.-530 с.

6. Пономарев О.И. Эффективные керамические изделия в строительстве. Промышленное и гражданское строительство, 2001, №10.

7. Плужников Е.И. Трехслойные блоки для создания нормальной теплопроводности стен. Строительная газета, 2003, № 3.

INNOVATIVE
WORLD



KERAMIK MATERIALLARDAN SIFATLI G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI

F.U. Odilov

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
"Qurilish muhandisligi" kafedrasida dotsenti t.f.f.d., (PhD),

Annotatsiya: Ushbu maqolada keramik materiallardan sifatli va arzon g'isht ishlab chiqarishda energiyatejamkor texnologiyalardan foydalanish va ishlab chiqarish jarayonida alohida e'tibor talab etiladigan omillarga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: devorbop keramik materiallar, g'isht, press-kukun, maydalash, tozalash, qazib olish, namlikni normalash, quritish, pishirish.

Kirish

Dunyo amaliyotini hamda hozirgi davr talablarini o'rganadigan bo'lsak barcha qurilish sohalarida g'ishtdan konstruktiv qoplama va ashyo sifatida foydalaniladigan 2-5 qatlamli kombinatsiyalashgan devorlar barpo etishni taqozo etmoqda. Devorbop keramik buyumlarning samaradorligi boshqa enegiya tejamkor qoplama buyumlar bilan iqtisodiy jihatdan solishtirish asosida aniqlanishi mumkin.


Sovuq iqlimli davlatlarda (Kanadada) 3 va hatto 5 qatlamli devor konstruksiyalari qo'llaniladi, issiq yurtlarda esa, masalan, Avstriyada g'isht sanoatini texnik rivojlantirish yo'nalishi asosan g'ishtning issiqlik saqlash xossasini yaxshilashga qaratilgan, chunki, undan issiqlik uzatuvchanlik bo'yicha past talablar qo'yiladigan devorlar qurishda foydalanish mumkin. Masalan, Litvada deyarli barcha tashqi devorlar 3 qatlamli qilinadi.

Tanasi bo'sh yoki samarali deb nomlanadigan g'ishtning qatlamli konstruksiyalarida qo'llanilishi haqida so'z yuritilganda amalda devorning termik qarshiligini oshirmaydi, tanasi bo'sh kovak g'ishtlardan qoplama ashyo sifatida foydalanishdan esa umuman foydalanmaslik tavsiya etiladi, chunki devorlarning ishonchlilik qobiliyati pasayadi.

Ko'p kovakli g'ishtlardan barpo etilgan qoplamalarning mexanik Shikastlanishi natijasida, yuzani umumiy estetik ko'rinishini sezilarli darajada buzilishiga olib keluvchi chuqur siniqlar hosil bo'ladi. Lekin, hozirgi vaqtda jahon qurilish bozorida keramik granit, super to'ldiruvchili plastmassalar, toshqoltosh quyma plitalari, Shishafibrobeton singari qator yangi fasadbop qoplama ashyolar paydo bo'ldi.

Ammo, yuqori darajada sinovdan o'tganligi va keng tarqalganligi sabab, g'isht kelgusida qoplama va konstruktiv ashyo sifatida o'z mavqesini saqlab qolmoqda. G'isht bilan birgalikda qo'llaniladigan turli hil issiqlik izolyatsiya ashyolari kombinatsiyalashgan (qatlamli) devorbop konstruksiyalarni kerakli termik qarshiligini ta'minlaydi.

MDX davlatlarida devorbop keramik ashyolarning samaradorligini oshirishning turli yo'llari izlanmoqda. Respublikamizning keramik buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yirik korxonalarida ko'plab turdagi keramik mahsulotlarni ishlab chiqarish o'zlashtirilmoqda. Hozirgi vaqtda har xil rangdagi – fil suyagi, somon rang, qizil, o'rik rang, qizil, jigarrang, och yashil, ko'k, havo rang g'isht ishlab chiqarilmoqda (1-rasm).



1-rasm. Ishlab chiqarilayotgan g'ishtlarning turlari

Yuzalarini o'ta silliqdagi, geometrik o'lchamlarini aniqligi, mustahkamligini yuqoriligi (M125–M150), sovuqqa chidamliligini standart talabiga nisbatan (G'50) 2-3 barobar yuqoriligi – bularni hammasiga xom ashyolarni tayyorlashda texnologik tarmoqlarda yuqori sifatli jihozlarni qo'llash natijasida erishilgan.

Standart shakl va o'lchamdagi oddiy g'isht bilan bir qatorda, zavod yarim, bir yarim va ikkita g'isht o'lchamidagi buyumlar, yon qirrali yumaloqlangan yoki 45 gradus burchakli g'isht, trapetsiya shaklidagi, deraza osti elementlari hamda olti qirrali yoki doira shakldagi kesimli ustunlarga mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan.

Zavodning yangi mahsulotlaridan biri g'ovaklashtirilgan keramik toshdir (ikkita g'isht o'lchamida). Mazkur toshdan tashqi devorining qalinligi 64 sm qilib barpo etilgan binolar uchun issiqlik saqlash bo'yicha qo'shimcha tadbirlar talab etilmaydi.

Bunday devorlarning issiqlik saqlash ko'rsatkichlari va tannarxi samarali serg'ovak betondan qurilgan devorlarnikiga teng bo'ladi. Lekin, mustahkamlik va umrboqiylik bo'yicha ulardan bir muncha ustunlikka ham ega.

Bugungi kunga kelib, Xitoylik ishlab chiqaruvchilar tomonidan MDX davlatlarining qurilish bozorlarini arzon narxlardagi, o'lchamlari kichiklashtirilgan g'ishtlar bilan to'ldirmoqdalar.



2-rasm. Oxangaron «Building innovation» korxonasining devorbop keramik mahsulotlari.

O'lchamlari mahalliy standartlarga mos kelmaydigan bu g'ishtlardan devor urishda, quruvchilar devor qalinligini o'zgartirmaslik uchun choklar qalinligini oshiradilar, bu devorlarning issiqlik saqlash qobiliyati yana ham pasayishiga olib keladi.

1-jadval

Har xil ashyolardan qurilgan devorlarning ko'rsatgichlari.

No	Devor konstruksiyasi	ρ , kg/m ³	λ , Vt/(m·0S)	R, m ² K/Vt.	1m ² mas-sasi, kg	Qalinligi, sm.
1.	Silikat g'ishtli devor	1800	0,87	0,74	1152	64
2.	Ichi kovak g'ishtli devor	1600	0,64	0,80	816	51
3.	Keramzitbeton devor	1000	0,41	0,85	350	35
4.	Gazobeton devor	600	0,26	0,92	144	24
5.	Mineral paxta issiq-lik saqlagichi ishlatilgan uch qatlamli temirbeton panel	2500	2,04	0,61	236	23

Serg'ovak beton va g'isht zavodlarini qayta jihozlash maqsadida chet el investitsiyalarini jalb etish va yangi ashyolarni izlash bilan bir qatorda ishlab chiqaruvchilar zamonaviy issiqlik izolyatsiya ashyolari asosida tayyorlanadigan ko'p qatlamli konstruksiyalarga e'tibor qaratmoqdalar.

1-jadvalga nazar soladigan bo'lsak devorlarning qurish usullarini taqqoslash uchun har xil devorbop ashyolar qo'llanilgan devorlarning ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan.

Keramik materiallar va buyumlar turli o'lcham, shakl, fizik-mexanik xossalariga ega bo'ladi va turli maqsadlarda foydalaniladi, lekin ularni ishlab chiqarish texnologik jarayonining asosiy bosqichlari taxminan bir xil bo'ladi va xom ashyo materiallarni qazib olish, xom ashyo massani tayyorlash, xom ashyoni qoliplash, quritish, pishirish, pishirilgan buyumlarni sortlarga ajratish va omborlarda saqlash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Keramik materiallar va buyumlarni ishlab chiqarish uchun tuproqlar, odatda bevosita korxonada

yaqinida joylashgan karerlardan bir yoki ko'p kovshli ekskavatorlar va boshqa mashina hamda mexanizmlar yordamida qazib olinadi va korxonaga tuproq kuzovi to'ntariladigan vagonetkalarda rels yo'llarda, avtosamosvallar, lentali transportirlar, kanat yo'l vagonetkallari va transportning boshqa turlari bilan tashib kelinadi.

Xom ashyo massasini tayyorlash: Karerda qazib olingan va korxonaga tashib keltirilgan tuproq tabiiy holatda, odatda, buyumlar qoliplash uchun yaroqsiz bo'ladi va tabiiy tuzilishini buzish, undan zararli aralashmalarni chiqarib tashlash, yirik aralashmalarni maydalash, tuproqqa qo'shimchalar aralashtirish shuningdek, qulay qoliplanadigan massa hosil qilish uchun talab darajasida namlantirib olinadi.

Tadqiqot usullari

Xom ashyo aralashmasi yarim quruq, plastik yoki ho'l (shliker) usullarda tayyorlanadi. Bu usullardan qaysi birini tanlash xom ashyo materiallarining xossalariga, keramik massaning tarkibiga va tuproqlarni qoliplash usuliga, shuningdek, ularning o'lchamlari va vazifasiga bog'liq bo'ladi. Yarim quruq usulda xom ashyo materiallari quritiladi, bo'laklanadi, maydalanadi va sinchiklab aralashtiriladi. Tuproq odatda, quritish barabanlarida quritiladi, quruqlikni tuyish mashinasida, dernitegratorlar yoki tegirmonlarda parchalanadi va maydalanadi, kurakli aralashtirish mashinalarda aralashtiriladi. Press-kukunning namligi 9-10%. Press-kukun kerakli namlikka ega bo'lmagunga qadar suv yoki bug' bilan namlanadi. Yarim quruq presslab tayyorlangan qurilish g'ishti, pol plitkalari, qoplama plitka va boshqalar tayyorlashda xom ashyo aralashma tayyorlashning yarim quruq usulidan foydalaniladi. Plastik usulda xom ashyo materiallari tabiiy namlikda aralashtiriladi yoki namlik 18-23 % bo'lgach tuproq qorishmasi hosil bo'lgunga qadar suv qo'shiladi. Xom ashyo materiallarini maydalash va qayta ishlash uchun turli tipdagi jo'valar va tegirmon toshidan, aralashtirish uchun esa tuproq qorigichlardan foydalaniladi.

Xulosa

- Plastik usulda plastik qoliplanadigan keramik g'ishtlarni, keramik toshlarni, cherepitsalar truba va boshqalarni ishlab chiqarish uchun xom ashyo aralashmasi tayyorlanadi.

- Shliker usulida xom ashyo materiallar oldindan maydalab kukun qilinadi, so'ngra esa ko'p miqdorda suv quyib yaxshilab aralashtiriladi, bunda bir jinsli suspenziya (shliker) hosil bo'lishi kerak. Bu usul chinni va fayans buyumlar, qoplama plitka va boshqalarni ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

- Keramik buyumlar xar xil usullarda: plastik, yarim quruq va quyib qoliplanadi.

- Qoplash usulini tanlash buyumlar turiga, shuningdek, xom ashyoning tarkibi va fizik-mexanik xossalariga bog'liq.

- Plastik usulda qoliplash – buyumlarni plastik tuproq massalaridan presslarda tayyorlash – qurilishbop keramik buyumlar ishlab chiqarishda eng ko'p tarqalgan usuldir.

- Namligi 18-23% qilib tayyorlangan tuproq massasi lentali pressning qabul qilingan bunkeriga yo'naltiriladi, zichlanadi va almashinuvchi mushtuk orqali brus ko'rinishida siqib chiqariladi.

- Mushtukni almashtirib, shakli va o'lchamlari turlicha bo'lgan brus olish mumkin. Pressdan to'xtovsiz chiqayotgan brusni tayyorlanayotgan buyumlarining o'lchamlariga muvofiq avtomatik kesish qurilmasi uni alohida qismlarga qirqib ajratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

7. Mirziyoev Sh.M. Qurilish ashyolari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida, 2019-yil 20-fevral,

PQ – 2660.

8. Qosimov E. Qurilish ashyolari. Oliy o'quv yurtlarining magistrantlari uchun . - darslik. T.: Mehnat. 2004.

9. Samigov N.A., Samigova M.S.. Qurilish materiallari va buyumlari. Toshkent. Mehnat, 2004.

10. Рыбьев И.А. Строительное материаловедение.-М.: Высшая школа, 2003.-701 с.

11. Микульский В.Г. и др. Строительные материалы.-М.: АСВ, 2000.-530 с.

12. Пономарев О.И. Эффективные керамические изделия в строительстве. Промышленное и гражданское строительство, 2001, №10.

7. Плужников Е.И. Трехслойные блоки для создания нормальной теплопроводности стен. Строительная газета, 2003, № 3.

INNOVATIVE
WORLD



SHISHA BUYUMLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYALARI

F.U. Odilov

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti
“Qurilish muhandisligi” kafedrasida dotsenti t.f.f.d., (PhD),

Annotatsiya: Ushbu maqolada, sifatli shisha buyumlarni quyib olishda suyultirilgan massani suyultirish darajasida va qoliplash jarayonlariga to‘xtalib o‘tilgan.


Kalit so‘zlar: Kvars qumi, shisha buyumlar, yuqori harorat, suyuqlantirish, shaffoflanish, deraza oynalari, shisha tola, vitrina oynalari, bezakbop oynalar.

Kirish

Shisha materiallarini paydo bo‘lishi va ularda turli shisha buyumlarini tayyorlash texnologiyalari dastavval, Misr, Gretsiya va Rimda eramizdan avvalgi 30-40-asrlarda ma‘lum bo‘lgan. Keyinchalik Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlariga ham turli hududlardan shisha buyumlar tayyorlash texnologiyalari kirib kela boshlagan.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng Respublikamizda ham 1996-yillardan boshlab shisha va shisha buyumlar ishlab chiqaruvchi zavodlar (Chirchiq va Quvasoy shisha zavodlari) faoliyat ko‘rsata boshladi va bugungi kunga qadar tobora rivojlanib kelmoqda.

Shisha ishlab chiqarishda foydalaniladigan asosiy xomashyo turlari



Shisha to‘g‘ri fazoviy panjara strukturasi ega bo‘lmaganligi sababli, uning xossalari barcha nuqtalarda bir xil bo‘lmaydi. Bundan tashqari, shishaning muayyan erish harorati bo‘lmaydi.

Shishaning o‘ziga xos strukturasi uning shaffofligini, mo‘rtligini, atmosfera muhitiga chidamliligini, olovga chidamliligini, harorat o‘zgarishiga ta‘sirchanligini belgilaydi.

Deraza oynalarining cho‘zilishdagi mustahkamligi 6500-8000 MPa bo‘ladi. Shisha strukturasi mikro defektlar bo‘lganligi sababli haqiqiy mustahkamligi 30-90 MPa bo‘ladi. Shishaning siqilishdagi mustahkamligi 700-1000 MPa, ba‘zi hollarda 1200 MPani tashkil etadi. Deraza oynalarining nur

o'tkazuvchanligi 90-92 foiz, shisha bloklarini esa 80-85 foiz bo'ladi. Shisha nurni qaytarish xususiyatiga ega bo'lgani va faqat 2 foiz nurni o'zi yutgani sababli, uning nur o'tkazuvchanligi, asosan, nurning oynaga tushish burchagiga bog'liq bo'ladi. Deraza oynalari infraqizil nurlarni yaxshi o'tkazadi, ultrabinafsha nurlarni esa yomon o'tkazadi.

Shisha zich material ($2,5-2,6 \text{ g/sm}^3$) bo'lgani uchun tovushni yaxshi o'tkazadi. Shu sababli binolarga tovush deraza oynalari orqali kirib, binoning ekspluatatsion holatini yomonlashtiradi. Tovushni izolyatsiyalash, deraza oynalarining qalinligi va ular orasidagi masofaga bog'liq bo'ladi.

Shishani va undan tayyorlangan buyumlarni olmos bilan, kesish, arralash, charxlash, shliflash, polirovkalash mumkin. Shishalardan 800-1000°C haroratda list, nay, tola sifatida cho'zish, payvandlash va puflab shakl berish kabi usullar bilan buyum olish mumkin.

Bugungi kunda Shishaning ishlanuvchanligidan foydalanib, qurilish buyumlari, shishapaketlar, tola va matolar tayyorlanmoqda.



1-rasm. Shisha tolali va matolar

Taxta oynasi- oddiy deraza, vitrina, issiqlik nurlarini yutuvchi, armaturalangan va boshqa oyna turlari kiradi.

Taxta oyna deraza va eshikni to'sishga, sanoat va jamoat binolarini tashqi muhitdan izolyatsiyalashda, ichki va tashqi tomondan bezashda ishlatiladi.

Taxta oynaning o'lchamlari

- eni 250-1600 mm.,
- uzunligi 250-2200 mm,
- qalinligi 2; 2,5; 3; 4; 5 va 6 mm. o'lchamlarda tayyorlanadi.
- bir metr kvadrat oynaning massasi 2-5 kg.
- uning nur o'tkazuvchanligi 87 foizdan kam bo'lmasligi, shaffof bo'lishi talab qilinadi. U rangsiz bo'lib, ba'zi hollarda yashil yoki ko'kimtir soyalar bo'lishiga ruxsat etiladi.

Vitrina oynasi - ma'muriy, maishiy, savdo, mehmonxona va shu kabilar binolarni bezashda ishlatiladi.



2-rasm. Vitrina oynalari

Vitrina oynalar polirovkalanib, .
qalinligi 6-10-45 mm.,
eni 3500 mm, bo'yi
6000 mm. gacha o'lchamlarda ishlab chiqariladi.

Uning bir tomonlama nur o'tkazuvchi turi binolarni bezashda va yorug'lik nurini mo'tadil saqlashda zarur bo'ladi.

Bezak panellari oynasi (stemalit) - toblangan, polirovkalangan qalin oyna

(6 mm.) hisoblanadi. Ularni ishlab chiqarish jarayonida ichki yuzasiga rangli keramik bo'yoqlar qoplamasi surtilib olinadi. Ular stemalitlardan jamoat binolari - mehmonxonalar, vazirliklar, ekspomarkazlar va shu kabi binolarni bezashda ishlatiladi.



3-rasm. Qurilishda foydalanilayotgan bezakbop oynalari

Marbilit qalin(12 mm.) rangli oyna bo'lib, bir tomoni polirovkalangan va ikkinchi tomoni esa g'adir-budur bo'ladi.

U binolarni bezashda, deraza osti taxtalari, sotuv vitrinalari, ish stollari tayyorlashda ishlatiladi. Emallangan shisha plitka 150x150 yoki 150x175 mm o'lchamlarda, qalinligi 3-5 mm. chiqindi oynadan shisha emali qoplab tayyorlanadi. U quritilgach, xumdonda kuydiriladi. Mahsulot binolarni ichki bezagi uchun ishlatiladi.

Tadqiqot usullari

Shishaning pishirish haroratini pasaytirish maqsadida shisha qorishmasi tarkibiga soda va natriy sulfati elementlarini qo'shish maqsadga muvofiq. Agar faqat kvarts qumi va sodadan iborat qorishmalardan shisha olinsa nim shaffof shisha materiali hosil bo'ladi. Lekin bu turdagi shisha

materiallarining suvga chidamliligi past bo'lib, namlik yuqori bo'lgan sharoitlarda eruvchanligi yuqori bo'ladi. Bu kabi holatlarni oldini olish maqsadida, shisha materiallarini ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo qorishmasi tarkibiga tog' jinslaridan bo'lgan ohaktosh yoki dolomit tabiiy tosh elementlari kiritilishi natijasida quyib olinadigan shisha materialining suvga chidamliligini ta'minlashimiz mumkin bo'ladi.

Silikatli shisha materiallari maxsus shisha eritish xumdonlarida 1500°C haroratda olinadi.

- qizdirish jarayonida massaning harorati 800-900°C ga yetganda silikatlar hosil bo'lish jarayoni boshlanadi.

- harorat 1150-1200°C bo'lganda, massa shaffoflashadi, lekin bu vaqtda shisha massasi tarkibida havo pufakchalari mavjud bo'ladi.

- harorat 1500°C bo'lganda shisha massasidagi havo aralashmalari chiqib ketadi va shisha qiyom holatiga yetadi.

Shisha buyum quyib olish uchun tayyor bo'lgan suyultirilgan massa qorishmasini qoliplash jarayonida quyuc yoki suyuq bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi va albatta quyib olinadigan mahsulot sifatiga o'z tasirini ko'rsatadi. Qorishmani talab darajasida suyultirish, quyib olinadigan buyumning shaklini oddiy yoki murakkabligidan kelib chiqib belgilanadi. Murakkab shakldagi shisha buyumlarni quyib olishda suyultirilgan massasining oquvchanligi yaxshi bo'lishi va qirrali kichik yuzalarni yaxshi to'ldirishi talab etiladi.

Shisha buyumlarni quyib olishda suyultirilgan massasining oquvchanligini yaxshi yoki yomon bo'lishi albatta, uning kimyoviy tarkibiga bog'liq.

Massa tarkibida kremniy oksidi SiO_2 va alyuminiy oksid Al_2O_3 larining mavjud bo'lishi va uning miqdorini ortib borishi massani quyucqlashtirib, oquvchanligini yomonlashtiradi.

Massa tarkibida natriy oksidi Na_2O , kalsiy oksidi CaO va litiy oksid Li_2O larining mavjud bo'lishi va uning miqdorini ortib borishi esa aksincha, massani quyucqlashtirib, oquvchanligini yaxshilaydi.

Shisha massasi tarkibiga natriy oksidi kaolin, va dala shpati (Al_2O_3) kiritilishi uning mustahkamligini, termik va kimyoviy chidamliligini oshiradi.

Shisha xomashyosi tarkibiga kerakli miqdorda bor oksidi B_2O_3 kiritilsa, uning shishalanishi tezlashadi va kristallanish davri kamayadi.

Shisha xomashyosi tarkibiga rux oksidi ZnO qo'shilsa, shishaning yuqori haroratda chiziqli kengayish koeffitsiyentini kamaytiradi va parallel ravishda uning termik chidamliligini oshiradi.

Xulosa

Murakkab shakldagi shisha buyumlarni quyib olishda suyultirilgan massasining oquvchanligi yaxshilash maqsadida kremniy oksidi SiO_2 , alyuminiy oksid Al_2O_3 , natriy oksidi Na_2O , kalsiy oksidi CaO va litiy oksid Li_2O lari kiritib massaning oquvchanligi normallashtiriladi.

Quyib olingan shisha maxsulotini termik va kimyoviy chidamliligini oshirish maqsadida massasi tarkibiga natriy oksidi kaolin, va dala shpati kiritilishi maqsadga muvofiq;

Quyib olingan shishani kristallanish davrini kamaytirish maqsadida xomashyo massasi tarkibiga bor oksidi B_2O_3 kiritish tavsiya etiladi;

Quyib olingan shisha mahsulotini yuqori haroratda chiziqli kengayish koeffitsiyentini kamaytirish va parallel ravishda uning termik chidamliligini oshirish maqsadida tarkibiga rux oksidi ZnO qo'shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

13. Mirziyoev Sh.M. Qurilish ashyolari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida, 2019-yil 20-fevral, PQ – 2660.

14. Qosimov E. Qurilish ashyolari. Oliy o'quv yurtlarining magistrantlari uchun . - darslik. T.: Mehnat. 2004.

15. Samigov N.A., Samigova M.S.. Qurilish materiallari va buyumlari. Toshkent. Mehnat, 2004.

16. Рыбьев И.А. Строительное материаловедение.-М.: Высшая школа, 2003.-701 с.

17. Микульский В.Г. и др. Строительные материалы.-М.: АСВ, 2000.-530 с.

18. Пономарев О.И. Эффективные керамические изделия в строительстве. Промышленное и гражданское строительство, 2001, №10.

19. Плужников Е.И. Трехслойные блоки для создания нормальной теплопроводности стен. Строительная газета, 2003, № 3.

INNOVATIVE
WORLD

MUNDARIJA | TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	PROCEDURE FOR COLLECTING FINES FROM DRIVERS OF FOREIGN VEHICLES VIOLATING TRAFFIC RULES Gaffarov Makhammatzokir Toshtemirovich Nasirov Ilham Zakirovich	4
2.	SHAHRIHON SHAHAR AVTOSHOXBEKATIDA YO'LOVCHI TASHISH INTELEKTUAL TRANSPORT TIZIMIDAN FOYDALANISHNI BAHOLASH Usmonov Azizbek XXX	9
3.	ANDIJON SHAXRIDAGI ALPOMISH MEROSI AVTOSAROYIDA YO'LOVCHI TASHISHDA MULTIMODAL TASHISH YO'NALISHNI QISQARTIRISH Usmonov Azizbek XXX	12
4.	KERAMIK G'ISHT ISHLAB CHIQRISHDA MATERIALLARNING KLASSIFIKATSIYASI. F.U. Odilov X.Askarov	16
5.	KERAMIK MATERIALLARDAN SIFATLI G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI F.U. Odilov	21
6.	SHISHA BUYUMLAR ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYALARI F.U. Odilov	26

INNOVATIVE
WORLD